O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BADIIY ASAR NOMLARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI
ANALYSIS OF RESEARCH ON THE TITLES OF LITERARY WORKS IN UZBEK LINGUISTICS
АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ НАЗВАНИЙ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Nozimova Maftuna Ravshanbek qizi
Tel: +99890 302-21-32

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek onomastikasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va bugungi holati yoritilgan. XX asrning 60–70-yillarida o‘zbek tilshunosligida paydo bo‘lgan yangi ilmiy yo‘nalishlar qatorida onomastika ham alohida soha sifatida shakllandi. Unda antroponimika, toponimika, etnonimika kabi yo‘nalishlarda olib borilgan tadqiqotlar, himoya qilingan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, nashr etilgan ilmiy asarlar tahlil qilinadi. Shuningdek, onomastika sohasining rivojlanishida ilmiy anjumanlarning ahamiyati, o‘zbek ismlari va toponimlarining o‘rganilishi, milliy tarixiy xotirani tiklashdagi roli yoritilgan. Maqolada Prezidentimiz I.A. Karimovning milliy nomlarning ma’naviy ahamiyatiga oid fikrlari asosida nomshunoslikning ma’naviy-axloqiy qirralari ham tahlil etiladi.*

Kalit so’zlar: *onomastika, o‘zbek tilshunosligi, nomshunoslik, antroponimika, toponimika, etnonimika, atoqli ot, tarixiy xotira, milliy qadriyat, ma’naviyat, E.Begmatov, Z.Do‘simov, I.A. Karimov, ilmiy anjuman, adabiy onomastika.*

Annotation. *The article examines the formation and development of Uzbek onomastics as an independent branch of linguistics. Emerging in the 1960s–1970s alongside new linguistic disciplines such as phonology, stylistics, and sociolinguistics, Uzbek onomastics quickly evolved into one of the most active research areas. The study highlights achievements in anthroponymy, toponymy, and ethnonymy, including dissertations, monographs, and lexicographical works. The role of academic conferences in the growth of Uzbek onomastic studies and the efforts to restore national and historical names are discussed. Based on President I.A. Karimov’s reflections on the spiritual importance of native names, the article also explores the cultural and moral dimensions of name studies in Uzbekistan.*

Keywords: *onomastics, Uzbek linguistics, name studies, anthroponymy, toponymy, ethnonymy, proper names, historical memory, national identity, spirituality, E. Begmatov, Z. Dosimov, I. Karimov, academic conferences, literary onomastics.*

Аннотация. *В статье рассматриваются становление и развитие узбекской ономастики как самостоятельной отрасли языкознания. В 1960–1970-е годы, наряду с новыми направлениями лингвистики — фонологией, стилистикой, социолингвистикой — узбекская ономастика сформировалась как важная научная сфера. Анализируются достижения в области антропонимики,*

топонимики и этнонимики, защищённые диссертации, монографии и словари. Отмечается роль научных конференций в развитии ономастических исследований, а также значение восстановления национальных исторических имён. На основе идей Президента И.А. Каримова о духовной ценности родных имён раскрываются культурно-нравственные аспекты узбекского номиноведения.

Ключевые слова: *ономастика, узбекское языкознание, номиноведение, антропонимика, топонимика, этнонимика, собственные имена, историческая память, национальные ценности, духовность, Э. Бегматов, З. Дусимов, И. Каримов, научные конференции, литературная ономастика.*

XX asrning 60-70-yillarvda o'zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Masalan: eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, frazeologiya, stilistika (uslubshunoslik), nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), areal lingvistika, lingvostatistika kabilar. Uzbek onomastikasi xam o'sha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri sanaladi. Uzbek onomastikasi (nomshunosligi) o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan soxalaridan biriga aylandi. Uzbek nomshunosligi bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli tadqiqotlar o'zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izoxli lug'atlar, ko'p sonli ilmiy maqolalar, nomzodiik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi. "Uzbek onomastikasi masalalari" tanlanma fanini o'rganish uchun Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida bildirilgan quyidagi fikr-mulohazalar asosiy dasturilamal bo'lib xizmat qiladi: "Bugungi kunda yoshlarimiz yurtimizning ko'cha va xiyobonlari, metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar, binolarni bezab turgan o'zbekcha nomlar, shior va lavhalarni ko'rib bularning barmasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki, yaqin tariximizda bu manzara butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi. Birgina Toshkent shahridagi ko'chalarning nomlarini o'qib, beixtiyor qaysi mamlakatda yurganingizni bilmay qolar edingiz: Lenin, Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin va hokazo.[29] Shunisi ajablanarliki, bolsheviklar partiyasining dohiylari bo'lmish bu insonlarning birortasi ham umrda yurtimizga qadam ko'ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kimsalar edi. Yoki shahardagi aksariyat turar-joy mavzelari "Ts-1", "Ts-2", "Ts-15" deb nom olib, odamda hech qanday his-tuygu, xotira uyg'otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelinishini eslaylik.[30] Bularning barchasi zamirida sovet mafkurasiga xos bo'dgan, odamzotni tarixiy xotira, Vatan tuyg'usidan judo qilishga qaratilgan g'arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish kiyin emas.

[29] Булаховский Л.А. Курс русского литературного языка. В 2-х томах. Т.1. – Киев, 1952. – С. 102-103.; Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие, источники и лексикографическая разработка: Автореф. докт. филол. наук. – Ленинград, 1968. – С. 12.; Фомина Н.Д., Бакина М.А. Фразеология современного русского языка. – Москва: Изд-во университета дружбы народов, 1985. – С. 23-26.

[30] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – Toshkent: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2001. – 448 b

Holbuki, ajdodlarimiz o'zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e'tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o'n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma'noli, go'zal nomlarni olaylik. *Samarkand, Beshyogoch, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar* darvoza degan nomlar avvalambor o'zining aniq tarixiy-jug'rofiy ma'nosi bilan ajralib turadi.[31]

Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o'z aksini gopgan. Masalan, Toshkentning Eski Shahar qismidagi *Pichoqchilik, Charxchilik, Ko'nchilik, Degrezlik, Taqachi, Egarchi, O'qchi, Zargarlik, Parchabof* singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqadar rivojlanganidan, xalqimiznish azaldan o'troq xayot kechirib, yuksak madaniy gurmush darajasiga ega bo'lganidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo'lgan, yuqorida zikr etilgan yasama, siyosiy nomlar o'rniga Mirobod, Rakat, Mingo'rik, Darxonariq, Shayxontohur, Yakkasaroy, Zarqaynar, Uchtepa kabi asl nomlarning tiklanganini, eng muhimi, bunday ishlar mamlakagimizning barcha mintaqa va hududlari miqyosvda amalga oshirilayotganini ta'kidlash joiz.

O'zbek onomastikasi yoki nomshunosligi o'tgan asrning 60-70- yillarida alohida ilmiy yo'nalish sifatida yuzaga keldi. O'zbek nomshunosligi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab eng rivojlangan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa, bu sohaning antroponimika, toponimika, etnonimika kabi bir qator sohalarida juda barakali ishlar amalga oshirildi. Masalan, o'zbek ismlari (antroponimlari) materiallari atroflicha to'plandi, to'rtta nomzodlik dissertatsiyasi (E.Begmatov - 1965, G'.Sattorov - 1990, S.Rahimov - 1998, R.Xudoyberganov - 2007) himoya qilivdi, E.Begmatovning "Kishi nomlari imlosi" (1970), "O'zbek ismlari imlosi" (1972), "O'zbek ismlari" (1991), "O'zbek ismlari ma'nosi" (1998; 2004; 2010), "Ism chiroyi" (1994) nomli kitoblari nashr etildi.

Bu davrda o'zbek toponimikasi bo'yicha olib borilgan ishlarning samarasi salmoqli bo'ldi. Shu kunga qadar o'zbek toponimikasi bo'yicha 20 dan ortik nomzodlik, uchta doktorlik (Z.Do'simov, S.Qoraev, T.Enazarov) ishi himoya qilindi.[32] O'zbek toponimikasi bo'yicha himoya qilingan nomzodlik ishlari Qashqadaryo viloyati (T.Nafasov, T.Enazarov, O.Begimov), Surxondaryo viloyati (Yo.Xo'jamberdiev, X.Xolmo'minov), Samarkavd viloyati (T.Rahmatov, N.Begaliev, A.Turobov, S.Bo'riev), Sirdaryo viloyati (N.Mingboev), Toshkent viloyati (M.N.Ramazonova), Buxoro viloyati (S.Nayimov, A.Aslonov), Navoiy viloyati (O'.Oripov), Jizzax viloyati (A.Zokirov), Farg'ona viloyati (N.Oxunov, S.Gubaeva, J.Latipov), Xorazm miloyati (Z.Do'simov, A.Otajonova, M.Tichlaeva), Shimoliy o'zbek shevalari toponimiyasi (L.Karimova), Goshkent shahri (Sh.Qodirova) toponimiyasi bo'yicha yozilgan edi.

O'zbek nomshunosligining taraqqiyotida onomastikaga oid respublikamizda o'tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanlarning o'rni kattadir. Masalan, 1974-yilda Buxoro

[31] Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 237 b
[32] Абдурахимов М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. – Ташкент: Ўқитувчи, 1990. – 184

shahrida "O'rta Osiyo onomastikasinint dolzarb muammollari" mavzuida butunittifoq ilmiy anjuman o'tkazilgan edi. Bu anjumanda juda ko'plab taniqli olimlar qarori Samarqand shahridan L.I.Royzenzon H.Berdiyorov, R.Qo'ng'urovlar ishtirok etgan edilar.[33] H.Berdiyorov B.Yo'ldoshev bilan hamkorlikda bu anjumanda "O'zbek tilida frazeologizmlar tarkibida atoqdi otlarning ko'llanilishi", R.Qo'ng'urov esa "Mushtum" satirik jurnalida okkazional ma'noli atoqli otlar" mavzuvda ma'ruzalar qilgan edilar. Xuddi shu yillari SamDUda "Onomastika masalalari" nomi bilan bir necha ilmiy to'plam nashr etilgan, bu sohada ilmiy-tadqiqotlar ko'lami ancha kengaygan edi. Masalan, xuddi shu yillari SamDU limlari poetik onomastika yoki onomastik uslubiyat masalalari bilan maxsus shug'ullana boshladilar. Taniqli adabiyotshunos olim E.B.Magazannikning "Onomapoetika yoki adabiyotda gapiruvchi nomlar" nomli yirik monografiyasi Toshkentda nashr etilgandi. Bu olimning shogirdi Yu.Po'latov esa shu sohada izlanishlar olib borib, badiiy matndagi nomlar tarjimasiga doir qiziqarli risola yaratgan edi. Keyinchalik I.Mirzaev badiiy tarjimada kishi ismlari va geografik nomlarning berilishiga doir ayrim kuzatish ishlari olib bordi.

XX asrning 80-90-yillarida Jizzax (1985), Guliston (1987), Qarshi (1989), Navoiy (1993; 1998) shaxarlarida "O'zbekiston onomasgshsasi" deb nomlangan butunittifoq va respublika ilmiynazariy hamda ilmiy-amaliy anjumanlari o'tkazilgan, ularning materiallari alohida to'plamlar sifatida nashr etilgan edi. Xuddi shu yillardan boshlab O'zMU, ToshDPU, SamDU, QarshiDU, BuxDU kabi oliy o'quv yurtlarida "Nomshunoslik masalalari", "O'zbekiston toponimikasi", "O'zbekiston onomastikasi", "O'zbek tili onomastikasi" muammolariga bagishlangan maxsus kurslar, ixtisoslik seminarlari o'qiladigan bo'ldi. O'zbek nomshunosligida mavjud bo'lgan ishlarning aksariyatida ismlar, qisman laqab va taxalluslar, mikrotoponim va makrotoponimlar, etnonimlar tahlil qilingan, xolos.

Lekin o'zbek tilidagi atoqli otlarning ba'zi tiplari shu kunga qadar deyarli o'rganilgan emas yoki kam tahlil qilingan. Bunday masalalar qatoriga kosmonimlar (astronimlar), mifonimlar, ktematonimlar, agnonimlar, nekronimlar, geopimlar, gemeronimlar, dokumentonimlar, oronimlar, nitronimlar, pereytonimlar, xromonimlar, geortonimlar, smeleonimlar fitonimlar, ekklezionimlar, ergonimlar, xrematonimlar, badiiy onomastika, onomastik uslubiyat, laqab va taxalluslar, atoqli otlarning imlosi, onomastik birliklarning amaliy transkripdiyasi va transliteradiyasi, nomshunoslikning amaliy va nazariy muammolari, jumladan onomastik leksikografiya muammolari kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E. Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. Namangan, 2006.

[33] Корзюкова З.В. Основные аспекты функционирования фразеологических единиц с именами собственными в английском языке: национальная культурная специфика: Дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2003. – С. 154-165.

2. Begmatov E. Nafasov T. Karaev S. Onomastika Uzbekistana. - T.: Nauka, 1999

3. Vinogradov V.V. O yazыke xudojenstvennoy literaturы. -M.: Russkiy yazыk, 1959.

4. Gurbanov A. Azerbayjon onomastikasi. Baku, 1986.

5. HojiyevA. Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. -T.: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

6. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси.- Тошкент, 2000. – 259 б.

7. Аничков И.Е. Труды по языкознанию. - С-Петерб: Наука, 1997.– 78 с.

8. Болотнова Н.С. Эвфемизация в современном словоупотреблении и языковая компетенция личности. // Языковая компенсация: грамматика, словарь. – Новосибирск, 1998. – Ч.И. – С. 19-23.